

BOTU
(MAHMUD HODIYEV)
SHOIR VA JAMOAT
ARBOBI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI
IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

BOTU
(MAHMUD HODIYEV)
SHOIR VA JAMOAT
ARBOBI

“MA'NAVIYAT”
TOSHKENT – 2024

UO‘K 001.32:821.512.133-1(092)

KBK 72g+84(50‘)-8

O-83

Qodirov B.

Ona yurt fidoyilari / Botu (Mahmud Hodiyeu) shoir va jamoat arbobi [Matn]. – T.: “Ma’naviyat”, 2024. – 24 b.

ISBN 978-9943-04-516-3

M a s ’ u l m u h a r r i r:

Botu Alimov,

yuridik fanlar bo’yicha falsafa doktori (PhD)

T a q r i z c h i:

Olimjon Davlatov,

filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori

Mazkur risola XX asr o‘zbek adabiyotining rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan, uning siymosida doimo bir insoniy sevgi va fidoyilik balqib turgan, jadidchilikni ko‘zga ko‘ringan shoiri va jamoat arbobi Botu (Mahmud Hodiyeu)ning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlanadi.



Jadid taraqqiyparvarlari xalq va mamlakat taqdiriga aloqador muhim masalalar bilan shug'ullanib, xalqini ilmi va ma'rifatli qilishga, uni erk, hurriyat va mustaqillik singari buyuk tarixiy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga intildilar. Ular millatni mustamlakachilik kishanlarini parchalab tashlashi uchun kurashga da'vat etdilar. Jadidlar bu yo'lda xalq maorifini taraqqiyotning eng ishonchli quroli sifatida birlamchi darajaga ko'tardilar.

XX asr o'zbek adabiyotining rivojiga salmoqli hissa qo'shganlardan biri ulug' shoir va jamoat arbobi – Botu (Mahmud Hodiyev)dir.

Botu (taxallusi: asl ismi Mahmud Hodiyev) (1904.15.5, Toshkent – 1938.9.5) – shoir, jurnalist.¹

O'tgan asrning 20-yillarida Botu taxallusi bilan ijod qilgan Mahmud Hodiyev bundan roza 100 yil ilgari, 1904-yil 16-mayda Toshkent shahri Shayxontahur dahasining Qatorterak mahallasida dunyoga keldi.²

Botuning otasi Maqsud aka ikki yoshligida otadan ayrilib onasining qo'lida qoladi, so'ng u ham vafot etadi. Endigina sakkiz yoshga to'lgan Maqsud mahsido'zga shogird tushib, tuz-nasibasini mashaqqatli mehnati bilan topa boshlaydi. Og'ir mehnat sharoiti va moddiy qiyinchiliklar uni toshkentlik boylardan birining xonadoniga

¹ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001, 571-б.

² *Боту*. Танланган асарлар. – Т.: “Шарк” Нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2004. 4-б.

yetaklab keladi. Oradan o‘n sakkiz yil o‘tgan- dan keyin- gina u mustaqil turmush kechirib, bo‘zchilik bilan shu- g‘ullana boshlaydi.¹

“Botu bo‘zchi oilasida dunyoga kelgan, – deb yozadi shoirni yaxshi bilgan zamondoshlaridan biri Laziz Aziz- zoda. – ...Otasi Maqsud Hodiyeв katta ilm egasi bo‘l- masa-da, ulkan qalb egasi edi, taraqqiyparvar yoshlar va olimlar bilan doimo munosabatda bo‘lib, hamisha gazeta va jurnallarni qo‘lidan qo‘ymasdi. Sarrojlik kasbini ham yaxshi bilardi”².

Botuning xotini Valentina Vasilyeva bergan ma‘lumot- ga ko‘ra, Maqsud aka o‘ttiz yoshida halol mehnati bilan topgan mablag‘i hisobiga Beshog‘och dahalik To‘xta ismli o‘n uch yashar qizga uylangan. Er bilan xotinning yoshi o‘rtasidagi farq katta bo‘lgani sababli ular bir- birlarini yaxshi tushunmaganlar. Shuning uchun ham To‘xtaxon o‘z qalbining barcha nozik tuyg‘ularini o‘n to‘rt yoshida ko‘rgan farzandi Mahmudga bag‘ishlagan, uni oq yuvib, oq taragan.³

“Shoirning onasi To‘xta opa, – deb yozadi Botu ijo- dining tadqiqotchilaridan biri Boboxon Sharipov, – aqlli, sezgir, rahmdil va mehribon ayol edi. Bu munis ayol ko‘pgina o‘zbek xalq ertaklarini, qo‘shiqlarini bilar va ularni o‘z farzandlariga ta’sirchan qilib aytib berardi. U o‘tkir zehni bilan alohida ajralib turadigan to‘ng‘ich farzandi Mahmudga shu tariqa ona tiliga, xalq poeziya- siga, xalq ijodiyotiga katta muhabbat uyg‘otdi”⁴.

¹ *Боту*. Танланган асарлар. – Т.: “Шарк” Нашриёт-матбаа ак- циядорлик компанияси бош тахририяти, 2004. 4-б.

² O‘sha asar, 4-b.

³ *Маҳмуд Ҳодиев Боту*. Танланган асарлар. – Т.: “Маънавият”, 2020. 4-б.

⁴ O‘sha asar, 5-b.

Mahmudning bolaligi Qatortarak mahallasining tor ko‘chalarida kechdi. U qish kunlarida mahalla bolalari bilan gurunglashib, turli o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lar, bahor kelishi bilan ko‘m-ko‘k o‘t-o‘lanlar va lolaqizg‘aldoqlar bilan to‘la tomlarda varrak uchirar edi. Ammo uning eng sevgan mashg‘uloti onasidan cho‘pchak va ertaklar, ajabtovur voqealarni tinglash edi. Mahmud besh yoshga kirganida Tohir va Zuhra ertagini yod olib, o‘zi ham onasiga qo‘shilib aytadigan bo‘ldi. Olti yoshida esa, eski maktabga borib, xat-savod chiqardi.¹

Maqsud aka zamonasining shayxontahurlik ilg‘or kishilariga yaqin bo‘lgani uchun to‘ng‘ich farzandini rus-tuzem maktabiga o‘qishga berdi. Botu ruschaga unchamuncha tushunadigan, rus tilida chiqqan “Samarqand” singari gazetalarni binoyidek o‘qiydigan bo‘ldi.²

Botu dastlab Moskvadagi Pokrovskiy nomli institut qoshidagi ishchilar fakultetida (1921), so‘ngra Moskva Davlat dorilfununining iqtisod fakultetida o‘qib (1921–1927), oliy ma‘lumotli bo‘lib yetishadi.³

Botu 1918-yilda “Vatan” maktabi qoshida Said Ahroriy tashabbusi bilan tashkil etilgan “Izchi” to‘dasining, 1919–1921-yillarda esa Fitrat tashabbusi bilan tuzilgan “Chig‘atoy gurungi” tashkilotining faoliyatida ishtirok etdi. O‘zbekistonga turk zobitlari qatorida kelgan Said Ahroriyning ham, Fitratning ham o‘z tashkilotlarini tuzishdan maqsadi yoshlarda vatanparvarlik va millatparvarlik g‘oyalarini shakllantirish edi. Botu shu davrda, ayniqsa, Fitrat ta’sirida bo‘lib, ustoz muharrirlik qilgan

¹ Маҳмуд Ҳодиев *Боту*. Танланган асарлар. – Т.: “Маънавият”, 2020. 5-6.

² O‘sha asar, 5-b.

³ <https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/botu-1904-1938/>

“Tong” jurnalining nashr etilishiga kotib sifatida hissa qo‘shdi.¹

Botuning 1923-yildan keyingi quvonch va iztiroblarga to‘la hayoti Valentina Petrovna Vasilyeva nomi bilan chambarchas bog‘liq.

Valentina 1904-yili Kursk viloyatining Rjeyu qishlog‘ida tug‘ilgan, 1922-yili Botu tahsil ko‘rayotgan Moskva Davlat universitetiga o‘qishga borishidan avval esa Ashxobod shahriga ko‘chib borib, uezd yoshlar tashkilotida ishlagan edi. 1923-yili Sovet davlati partiya va komsomol a‘zolari safidan madaniyat va xalq xo‘jaligining barcha sohalari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash shiorini o‘rtaga tashlaydi. Valentina shunda besh nafar tengdoshi bilan birga Moskvaga o‘qishga boradi. U universitetga o‘qishga kirganining dastlabki oylarida o‘quv yurtidagi jamoat tashkilotlarining birida ittifoqo Botu bilan uchrashib qoladi.

Tarix, siyosiy iqtisod va xalqaro huquq bo‘yicha leksiylar odatda ijtimoiy fanlar fakultetining ilgari ilohiyot darslari jaranglagan katta xonasida o‘qilar edi. Botu bilan Valentina ana shu xonada tez-tez uchrashadigan, ularning har ikkalasi ham ijod zavqi bilan yashagani uchun adabiy mavzularda bahslashadigan, bir-birlarining ijod namunalari bilan tanishadigan bo‘lishdi.

“U o‘z asarlarini o‘zbek tilida ravon o‘gir, so‘ng rus tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilar edi, – deb eslagan edi V.P. Vasilyeva. – U rus tilini yomon bilmasdi, ammo yana ham yaxshi o‘zlashtirish uchun har bir yangi rus so‘zini daftariga yozib olib, ma‘nosini mendan so‘rar va shu zahotiyuq yodlab olar edi... U hamma masalada intizomli, intiluvchan, bilimga haddan ziyod muhabbatli edi.”²

¹ Маҳмуд Ҳодиев *Боту*. Танланган асарлар. – Т.: “Маънавият”, 2020. 5–6-б.

² O‘sha asar, 7-b.

Botu 1924-yili Valentinaga uylanadi. Ulardan ikki farzand, ya'ni bir o'g'il va bir qiz tug'iladi.

Ularning o'g'li – Erkli Mahmudovich Hodiyeв jarroh, tibbiyot fanlari doktori, professor bo'lsa, qizi – Naima Mahmudovna Mahmudova tibbiyot fanlari doktori, professor, yirik jamoat arbobi (Respublika kasaba uyushmasi raisi bo'lgan) hamdir.¹

Botu Toshkentga oliy ma'lumotli iqtisodchi diplomi bilan qaytib kelgach, 1927-yil yanvarida O'zbekiston K(b)P Markaziy Qo'mitasida instruktor lavozimida qisqa muddat xizmat qildi, ayni paytda Samarqanddagi Markaziy partiya maktabida voiz (lektor) va rahbar (direktor) vazifasini bajardi. So'ng Markazqo'mning matbuot bo'limiga mudir etib belgilandi. 1928-yil yanvarida esa Samarqand okrug partiya tashkiloti targ'ibot va tashviqot bo'limiga mudir etib tayinlandi.² U 1929-yil 28-avgustda Xalq maorif komissari o'rinbosari etib tayinlandi.

Botu “Alanga” yoshlar jurnalini tashkil etdi va uning birinchi muharriri bo'ldi. U “Qizil qalam” adabiy uyushmasining tashkilotchisi va rahbari sifatida adabiy jaryonda faol ishtirok etib bordi.

U shu davrdan boshlab she'r va hikoyalar, publisistik maqola va ocherklar yozishga kirishdi. Botuning ilk she'ri 1919-yilda yozilgan. Bo'lajak shoir shu vaqtda endigina o'n besh yoshga qadam qo'ygan edi. Shundan keyin uning vaqtli matbuot sahifalarida bir necha she'rlari e'lon qilindi. 1922-yilda esa “O'zbek yosh shoirlari” to'plamida Fitrat, Cho'lpon, Elbek she'rlari bilan birga ular izdoshi bo'lgan Botuning ham dastlabki she'rlari

¹ <https://www.e-adabiyot.uz/maqola/232>

² Махмуд Ходиев *Боту*. Танланган асарлар. – Т.: “Маънавият”, 2020. 11-б.

nashr etildi. Fitrat va Choʻlponlarning yosh shoirni oʻz bagʻrilariga olishlarida katta hikmat bor edi. Ular shu yoʻl bilan ham Botuni oʻz taʼsir doiralarida ushlab turmoqchi, uni oʻz gʻoya va intilishlari ruhida tarbiyalamoqchi edilar. Ammo koʻp oʻtmay, yana bir qattiq qoʻl “ustoz”ning borligi maʼlum boʻldi. Bu yangi davr, yangi siyosiy tuzum, shu tuzumni barpo etayotgan siyosiy kuch edi. Bu ustozlarning har biri Botuni oʻz izmiga solmoqchi boʻldi. Yosh shoir ijodining dastlabki davrida ham adabiy ustozlariga manzur boʻla oladigan, ham yangi tarixiy davr ruhi bilan toʻyingan sheʼrlar yozdi.

Dastlabki sheʼrlarida Munavvar qori singari milliy istiqloлчаilar taʼsiri seziladi. “Umid uchqunlari” (1925), “Toʻlqin tovushlari” (1929) toʻplamlari nashr etiladi. U yangi tuzumga chin dildan ishongan, xalqqa haqiqiy tenglik, ozodlik, baxt-saodat beradi, deb umid qilgan. Shu maʼnoda yangilikni, yoshlikni, xotin-qizlar ozodligini kuy-ladi. Botu “Yangi qishloq” (1928), “Hoshim jon”, “Tursun” (1929), shuningdek bolalarga bagʻishlangan hikoyalari (“Bolalar yolgʻoni”, “Mening kitobim” va boshqa)da yangi ijtimoiy munosabatlar hamda bolalar dunyosi ruhiyatini tasvirladi. Botu oʻzbek arab alifbosini lotin grafikasi asosidagi alifboga almashtirish tashabbuskorlaridan boʻlgan (1920). Tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalariga oid bir qator maqolalar muallifi.¹

Botu yozgan sheʼrlardan taqdim etishni lozim topdik:

YOZ KUNI

*Qish kuni oʻtib, yoz kuni keldi,
Yer yuzin olgan qorlar tugaldi.*

¹ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001, 571-б.

*Har kim egnidan paxtalik tushgan,
Yupqa kiyimlar, boqing, kiyilgan.*

*Chechak ochildi bog'larda bu kun,
Bulbul chiqarar yoqimli bir un.*

*Butun og'ochlar chiqardi yaproq,
Ulug' Tangrining qudratiga boq.*

*Qushlar sayrashur og'ochga qo'nib,
Har kimni ko'rsang yurar shodlanib.*

*G'ir-g'ir shamollar yuzga urarlar,
Ko'ngilga qanday shodlik berarlar.*

*Qish o'tdi emdi, ey turonliklar,
Bitsin yalqovlik, turkistonliklar!*

1919-yil 24-iyun

TEMIR QOZIQ YULDUZIGA

*Keng bo'shliqning yuksagida bu o'rindan qo'zg'olmay,
O'zga nurli yulduzlardek keng o'lkada o'ynolmay,
Kechalari ko'zlaridan o'tli yoshlar oqizib,
Sevganini eslay turgan oshiq kabi qayg'urib,
Tip-tinch yerga boqib turgan Temir qoziq yulduzi!*

*Keng cho'llarda, dengizlarda yo'ldan chiqqan yo'lchilar
Marhamatli sen yulduzga qarab yo'lni toparlar.
Tip-tinch tunda yo'lni bilmay qo'rqinch aro qolganlar
Sen go'zalning ko'maging-la qo'rqinchlardan qutular:
Ey ko'makchi, marhamatli Temir qoziq yulduzi!*

*Qo'rqinch, jonsiz, tip-tinch, ulkan, qayg'u-alam cho'lida
Qiynoq bilan bita yozgan men yo'qsilga yo'l ko'rsat.*

*U yo‘l bilan bu keng cho‘ldan uzoqlashib ketayin,
Ko‘nglimdagi eng muqaddas tilagimga yetayin,
Ketib ko‘rib, so‘ngra... istar ekan bitayin!*

1920-yil aprel

O‘ZBEK QIZIGA

*O‘ynoq qizcha, erkin-erkin o‘ynab ol,
Erta-indin erking qo‘ldan ketadir.
Erkalanib bir-ikki kun quvnab qol,
Erka ko‘ngling hasratlarga botadir.*

*Nurlar sohib o‘ynab turgan ko‘zlaring
Erta-indin g‘am yoshi-la to‘ladir.
Sevinch porlab, kulib turgan yuzlaring
Dard ostida sap-sarg‘ayib so‘ladir.*

*Ko‘ksingdagi erk chechagin boy berib,
Erta-indin motam gulin taqarsan.
Ko‘lingdagi baxt cholg‘usin sindirib,
Qayg‘u-alam o‘chog‘ida yoqarsan.*

*Tabiatda yashnab turgan yuzingga
Erta-indin manhus o‘rtuk tutarsan.
Ana so‘ngra qop-qorong‘u zindonda
Yig‘lab-siqtab o‘limingni kutarsan.*

*Boyaqish qiz, erkalanib o‘ynab ol,
Erkalanib bir-ikki kun quvnab qol.*

1920-yil sentyabr

NAVOIY

*Bir zamonlar elimiz
Qorong'uda qolmishdi.
Bu choqlarda tilimiz
Yorli ism olmishdi.*

*U choqlarda yetishgan
Bizning adib, shoirlar
To'g'ri yo'ldan ozdilar;
O'zga elning tilida
Ancha asar yozdilar.
O'z tilini yomonlab,
O'zga tilni sevdilar.
Arab, forsiy tillarin
"Go'zal tildir", dedilar.*

*"Bu tushuncha yanglishdir,
O'z tilini sevmaslik
Eng yaramas bir ishdir.
Biz yashamoq istasak,
Tilimizni sevaylik.
Bizning tilni yaramas,
Yorli, degan kishilar
Yanglishalar, shubhasiz.
Bizning til ham boy tildir",
Dedi ongli bir kishi.*

*Arab, forsiy qullari
U so'zlarni eshitgach,
Xoxolashib kuldilar.
Mazax qilib: "Bu kishi
Telba bo'lmish", dedilar.
Bunday yanglish so'zlarga*

*U kishi hech boqmadi.
Buyuk tilak yo 'lida
Kecha-kunduz ishladi.
So 'zlarining haqligin
Ishlar bilan ko 'rsatdi.*

*“U kishi kim?” desangiz,
Aytib beray, o 'rtoqlar.
U kishini bilsangiz,
Buyuk shoir Navoiy.
Shuning uchun, bolalar,
Navoiyni sevaylik.
Navoiyning otini
Oltin bilan yozaylik.*

***Toshkent,
1921-yil aprel***

YOSHLAR UCHUN

*Eski turmush, eski uy
Yosh ko 'ngilni qiynagay.
Eski cholg 'u, eski kuy
Yosh yurakni tirnagay.
Eski qonun, eski yo 'l
Yoshni olg 'a eltmagay.*

*Yangi turmush izlagan
Ko 'p to 'siqqa uchragay.
Yuksalishni istagan
Qarshilikdan qo 'rqmagay.*

*Yosh bilak – kuchli bilak
Hormasin ham tolmasin.
Yosh bilak – nurli tilak*

*Porlasin, hech so 'nmasin.
Yosh bilak — o 'tli yurak
Hech umidsiz bo 'lmasin.*

***Toshkent,
1921-yil 16-sentyabr***

BIZNING TOVUSH

*Yo 'qsil elda dard ko 'paytgan, ong kamaytgan xon bilan
So 'nggi maydon qurgali ham unga zo 'r go 'r qazgali
Ezgu bayroq, boq-da, tutdik: jangimizni yozgali.
Ey muarrix, ushla yozg 'ich, bizni esla shon bilan.*

*Ko 'nglimiz to 'q, chayqalish yo 'q bizning son oz bo 'lsa-da,
Tebranishni to 'xtatish yo 'q, yo 'lga to 'sqin to 'lsa-da.
Zo 'r dengizdek to 'lqin urgan g 'ayratimiz oldida
Eski xonning taxti titrar qancha oliy bo 'lsa-da.*

*Biz, umidli yosh yigitlar, yoshli ko 'zga qarshimiz,
Har tomondan to 'lqin urgan bizning o 'tkir tovshimiz.
“Yosh yuraklar, bizning safga, qo 'r qoq o 'rtoq, qoch nari,
Dunyomizga orqa ber-da, ongni yo 'lla “yo 'q” sari”.*

***Maskav,
1922-yil***

UNUTMA BIZNI

Tushunchamiz yovlariga

*Kechagi qaynashlar pasaygan bo 'lsa-da,
Kechagi hujumlar susaygan bo 'lsa-da,
Kechagi na 'ralar kamaygan bo 'lsa-da,
Biz borliq bag 'rida qarshi kuch, unutma!*

*Haybatli maydonda biz javlon qilganda,
Qilichlar o'ynatib har yon ot surganda,
Qarshidan maydonga qahramon kirganda,
Sichqondan joy so'ragan eski kuch, unutm!*

*Ey qurg'ur eski kuch, nimalar qilmading?
Panaga bekinding, biroq tinch turmading,
Shatranjdan xabarsiz bo'lsang-da, jimmading,
Emdi jim, to'qinni, yozug'ni unutm!..*

*Maskav,
1923-yil 5-oktyabr*

TUTQUN SO'ZI

***“Erk” degan o'zbek xotin- qizlariga
bag'ishlayman.***

*“Uch, uch!” demang, ucholmayman,
Ko'kda erkni qucholmayman.
Tor ko'ngildan titroq tashlab,
Suyunchlarga ko'cholmayman.*

*“Chiq, chiq!” demang, chiqolmayman,
Dushman kuchin siqolmayman.
Yakka o'zim «kir tuzuk»ni
Uzil-kesil yiqolmayman.*

*Uchish uchun qanot bering,
Yaramga siz ko'mak bering.
Tuzoq uzing, qafas buzing,
Qafasgacha mozor tuzing!..*

*Yo'qolmasin go'zalligim,
Tugalmasin tugalligim.*

*Oching qizil amal yuzin,
Kulolmasin tubanligim.*

*Maskav,
1925-yil 17-fevral*

YANGI KUN BOLASI

*O'ynab turgan, kulib turgan bu bola,
Tinish bilmay har nafasda o'sadi,
Olqishlaydi uni shahar ham qal'a.*

*Toza kuchlar unga ko'mak etadi,
Qora kuchlar to'solmaydi yo'lini,
O'sib-o'sib u tilakka yetadi.*

*Esli kimsa shak qilolmas hech bunga,
Chunki, uni o'stiradi yangi kun,
Hech kuch zarba berolmaydi bu kunga...*

1927-yil 16-noyabr

**Botu tomonidan yozilgan hikoyalardan ba'zilarini
havola qilmoqchimiz.**

HAYIT HAROM BO'LDI

Bugun yolg'on arafa...

Ertaroz tamom bo'ladi...

Indin hayit...

Bu yilgi hayitning burungi hayitlarga o'xshamasligi ro'zaning boshidayoq bilingan edi. Mulla Oxunjon domla ro'zaning beshinchi kunida, hoji pochchaning ta'biri bilan aytganda, "Ta'birnomai Yusufiy"ga qarab, shunday karomat qilgan emishlar:

“Vallahi a’lam bissavab, bu yilgi iydi ramazon ko‘p musulmonlarning boshiga nuri ilohiy sochmasa kerak...”

Yolg‘on arafa savdosiga qarab turib, hoji pochcha ham o‘ziga karomat qildi:

– Bu yilgi hayit sharofatli bo‘la turganga o‘xshamaydi... Savdoning mazasi yo‘q.

Mulla Oxunjon domla hayit xarji qilib kelish niyatida rasta bozorga jo‘nadilar.

Inqilobdan burun har bir rastada bir necha e’tiborli boy bo‘lar edi. Bu boylarning ba’zilari Mulla Oxunjon domla rastadan o‘tib qolganda do‘konga taklif qilib, darrov choy va issiq non chiqardilar va duo qildilar. Hozir u boylarning dabdabali do‘konlari yoxud vayron bo‘lib yotadi, yoxud hukumat do‘konlari bo‘lib qolgan.

Domla to‘rt rastani aylanib chiqdi; hech kim bu kishiga iltifot qilmadi; domlada allaqanday ma’yuslik paydo bo‘ldi. Mulla Oxunjon domla “bismillo” deb chitfurushlar rastasiga qadam bosdilar. Agar bu rastada ham hech kim indamasa, domlaning ma’yusliklari toshib ketardi. Biroq bunday bo‘lmadi: hoji pochcha domlani do‘konga taklif qildi. Domlamiz hoji pochchadan juda ranjigan bo‘lsalar ham, shunday fursatda iltifot qilgan musulmonga yaxshi gapirmaslik, o‘z so‘zlari bilan aytganda, ayni hamoqat bo‘lardi.

Fotiha va tavozedan so‘ng domlamiz Hojidan ko‘ngil so‘radilar:

– Mulla Hojimuroddan darak yo‘qmi? Xudovandi karim o‘z panohida omon saqlasin...

– Inshoollo... – dedi egilib hoji pochcha, – hozirgacha tayinli bir darak yo‘q, taqsir. Ko‘p tashvishga qoldikda...

– Ramazon sharifda tashvish tortishning ujri behad bo‘ladi, hoji afandi... Mulla Hojimurod ko‘p ziyrak farzand; xotirjam bo‘ling...

– Ha, taqsir... Shuning uchun do‘konga tushishni ixtiyor qildik.

– Bunday ulug‘ kunlarda do‘kon yopiq tursa, farishtalar kirmay qoladilar... Juda yaxshi qilgansiz... Bu kunlarda do‘kon ochishning ham u dunyo va bu dunyo uchun foydasi bor.

Hoji pochchaga domlaning so‘zlari juda yoqdi. Domla u yoq bu yoqqa nazar solib, yana gapga kirdilar:

– Hoji afandi, sizning do‘koningiz ilgari zamonda ham shu yerda edimi?

– Yo‘q, taqsir. Mana shu qarshingizdagi kapiратif do‘kon kaminaga qarashli edi... Qo‘limizdan tortib oldilar... xarob qildilar...

– Shunday ekan... – dedi o‘ylanib domla, – men bir qancha rastalarga kirib chiqdim; har tomon xarob, har tomon vayron; do‘konlar yer bilan yakson, eski vaqtda olingan timlarning aksari ko‘tarilgan, ko‘chalarda yurish imkoniyatidan xorij... Bechora kosiblarning hollari tang. Eski vaqtda endi boy bo‘lib kelmoqda bo‘lgan do‘kondorlarning hollari yomon... Bularni ko‘rib, ko‘p afsus yedim...

– Taqsir, afsus yemaydigan zamon bo‘ldimi? Mana, qarang, taqsir. Bu tomonda shuncha do‘konlar, boylar yo‘q bo‘lib ketyapti, mana bu tomonda katta-katta g‘isht imoratlar... Bular maktab emish, qulub emish, zavud emish, gazitxona emish, nima balolar emish. Bularning bizga nima nafi bor? O‘zimizdan birgina boy chiqib, daranglatib katta magazin solmagandan keyin mamlakatning boyligi kimlarning qo‘liga kirib ketadi? Siz so‘ramang, men gapirmay...

Hoji pochcha juda dardli bo‘lsa ham, yuqori tovush bilan so‘zlashga jasorat qilolmas edi.

Domlamizning diqqatlarini do‘mbira ovozi o‘ziga jalb etdi.

Vayron rastalarning narigi tomonida ko‘kragini ko‘kka ko‘tarib turgan muhtasham binoni hoji pochcha ko‘rsatib, dedi:

– Ana u binoda piyomermi, piyonermi degan go‘daklar o‘qiydilar – bolshavoylikka tayyorlanadilar. Har kun erta-yu kech rat-rat...

Ular kuladilar, shodlanadilar...

To‘g‘ri, yangi zamon yengib, eski zamon yengilib boradi.

Mulla Oxunjon domla bilan hoji pochcha ham buni ko‘rib, sezib turadilar. Agar bularning kuchlari bo‘lsa edi, nimalar qilmasdilar. Domlamiz boshlarini tafakkurdan ko‘tarib, darddarini sochdilar.

– Qo‘lingizdan hech narsa kelmaydi... Har ikkimiz ham qarib qoldik, u dunyoni ko‘proq yod qilish lozim.

– Taqsir, so‘zingiz rost.

Bu dardlashishni hoji pochchaning uyidan kelgan bola buzdi.

Bola hovliqib dedi:

– Turdi akamni, Norqo‘zi akamni qamagan yerga Hojimurod akamni ham qamagan emishlar...

Hoji pochcha o‘rnidan irg‘ib turdi:

– Voy, hayit harom o‘ldi... Bularni otib o‘ldiradilar...

1929-yil

BOTUNING QAMOQQA OLINISHI

Botu respublikaning o‘sha yillardagi poytaxti Samarqandda qisqa muddat turli lavozimlarda ishlaganidan so‘ng, maorif xalq komissari o‘rinbosari etib tayinlandi.

Komissarlik ixtiyoridagi milliy maktablar rus maktablariga qaraganda, bir necha marotaba ko'p bo'lganiga qaramay, komissarlikka o'rnashib olgan kimsalar maorif uchun ajratilgan mablag'ning katta qismini rus maktablariga berib kelganlari ma'lum bo'ldi. Xalq maorif komissarligi, balki boshqa davlat idoralarini ham ruslar egallab olib, milliy kadrlarga kun bermayotganlari haqidagi faktlar to'la tasdiqlandi. Botu shunday hollarni bartaraf etish maqsadida Maorif xalq komissarligida yerlashtirish masalasini ko'tardi. Bu, tegishli idoralar tomonidan millatchilik sifatida baholanib, 1930-yil 23-iyulda komissarlikning Botu boshchiligida katta bir guruhi qamoqqa olindi.¹

Botuga Xalq maorif komissarligidagi aksilinqilobchi va millatchilar guruhining rahbari degan jiddiy ayb qo'yiladi.

Bu, 30-yillarda tayyorlana boshlagan katta qatag'onning o'ziga xos repetitsiyasi edi. Shuning uchun ham ko'p o'tmay, mahbuslar Moskvaga olib ketilib, mudhish Butirka qamoqxonasida so'roq qilinadi.²

Botu bundan bir necha yil ilgari paratif va o'pka shamollashi kasalliklari bilan og'rigani uchun uning sog'lig'i kundan-kunga yomonlashgan. Yoz oyida qamoqqa olingani uchun Moskvaga olib ketilganida yupqa kiyimlarda bo'lgani Botuning o'zi shundoq ham dardmand badaniga Rossiya sovug'i jiddiy xavf soladi.

Sovet davlati o'zining dastlabki konslageri uchun joyni shimoliy Muz okeaniga tutash Soloves orollaridan tanlagan edi. Bu yerdan qochib ketish ham, tirik qaytib

¹ Махмуд Ходиев *Боту*. Танланган асарлар. – Т.: “Маънавият”, 2020. 27-6.

² O'sha asar, 29-b.

kelish ham amrimahol edi. Oʻrta Osiyodan Soloves orollariga borib qolgan aksar mahbuslar birinchi yilning oʻzi-dayoq sovuqdan qirilib ketganlar.

Qamoq muddatini oʻtash uchun bu yerga yuborilgan Botu faqatgina belgilangan vaqtda – ikki-uch oyda bir martagina Toshkentdagi oila aʼzolari bilan xat yozish va xat olish huquqiga ega edi. Bunday cheklovlarga qaramay, Valentina Petrovna 1936-yilda tegishli idoralardan ruxsat olib, Botuning onasi va singlisi bilan birga Soloves orollariga boradi.

Ushbu mashaqqatli safar qatnashchilaridan biri – shoirning singlisi Xayri Hodiyeva bunday hikoya qilgan:

“1936-yili oyim, men va Erkli bilan Naimaning onasi uch kishi boʻlib, akam muddatini oʻtayotgan Solovkiga bordik. Shamollatib qoʻymaylik, deb Erklini atayin olmadik. Poyezdda Moskva va Leningrad orqali Kem pristani (suv bekati)ga yetib keldik. U yerda besh-olti kun turib, har kuni uchrashuv joyiga borib turdik. Solovkiga surgun qilingan mahbuslarni paroxodda shu yerga olib kelishar ekan. Akam Solovkiga surgun qilingani va bu yerda iqtisodchi boʻlib ishlayotganidan mamnun ekani aytdi. U uydagilar, bolalar, ayniqsa, jajjigina Naima haqida koʻpgina savollar berdi. Oʻzi yotgan joyga gullar ekib, ularga qarab, bolalarining boʻyi qanchaga oʻsganini taxmin qilishlari haqida soʻzlab berdi.

Akam juda mehribon kishi edi. Hammaga yordam berardi. agar biror kishi undan yordam olishni oʻzi uchun or deb bilsa, uni qandaydir yoʻl bilan qoʻllab-quvvatlash uchun kiyim-kechaklarini arzon-garovga ham berardi. Oʻzining esa bor-yoʻgʻi bittagina kostyumi boʻlgan...

Biz akamizdan koʻplab xat olardik – ular JEKka qarashli uyning boloxonasida qolib ketgan. Oʻsha vaqtda

odamlar tintuvdan qo‘rqib, hech narsani saqlashmagan: xatlar va kitoblarni quduqqa tashlashgan. Akam tufayli hamma qarindosh-urug‘larimiz ta‘qib va tazyiqqa uchrashgan...

Esimda bor, Hamza nomidagi teatr sahnasida “xalq dushmanlari»ning kirdikorlarini tasvirlovchi asar qo‘yilgan. Bu asarning qahramonlaridan biri Botu edi...”

Botu tufayli xotini va norasidalari, ayniqsa, azob-uqubatga to‘la hayotni boshdan kechirishdi.

Eri qamoqqa olingach, Valentina Petrovna har ehtirolga qarshi, o‘g‘li Erklini Ashxobodga, otasining huzuriga yuborgan edi. Erkli begona shahar va begona muhitda azbaroyi zerikkani va yotsiraganidan Toshkentga yashirin ravishda qochib kelish rejasini tuzadi. Ammo u yo‘lda adashib, tasodifan Eronga borib qoladi. Qarindoshlari Erklini sotib olishga majbur bo‘ladilar. U Toshkentga kelib, Siddiq va Yunus amakilarining uyida yashay boshlaydi.

Erkli Toshkentdagi Shumilov nomli maktabning uchinchi sinfida o‘qir ekan, Munavvar Ahmadjonovna degan o‘zbek tili o‘qituvchisi sinfga kirishi bilanoq bunday so‘zlarni aytadi: “Bolalar, bilasizlarmi, bizning hukumatimizda xalq dushmanlari uya qurib olishgan ekan. Akmal Ikromov, Fayzulla Xo‘jayev, Segizboyev, Manjara...” O‘qituvchi “xalq dushmanlari”ning nomlarini birma-bir nafrat bilan sanar ekan, Erkliga qarab, deydi: “Mana, sinfimizda sizlar bilan yonma yon Erik ham o‘qiyapti. Yomon bola emas, o‘qishlari ham yaxshi. Ammo uning otasi ham mamlakatimizga burjuylar, kapitalistlar, boy-lar va bosmachilarning qaytib kelib, hukmronlik qilishini istagan dushmanlardan ekan...” Erkli o‘qituvchining bu so‘zlarini tinglar ekan, qo‘llari beixtiyor partaning

egma taxtasini oshiq-moshiqidan ajratib oladi va tura solib, shu taxta bilan o'qituvchining boshiga tushiradi...

...Oradan bir qancha vaqt o'tib, Erkli Hodiyeu Oloy bozorida sobiq o'qituvchisini tasodifan uchratib qolganda, o'sha taxtaning izlari uning manglayidan hali ham ketmagan edi...

Botu qamoqqa olinganidan keyin Valentina Petrovna erining sovet davlati oldida mutlaqo gunohsiz, aksincha, vatanparvar, xalqparvar, taraqqiyparvar, ajoyib inson ekanini aytib, kirmagan eshigi qolmaydi. Ammo biror idora rahbari uning so'zlariga quloq osmaydi. 1941-yil iyulida esa uning o'zi qamoqqa olinib, 10 yillik qamoq jazosini o'tash uchun Magadanga yuboriladi. 15 yashar Erkli bilan 13 yashar Naima endi onasiz ham qoladilar.

O'zbekiston NKVDsining o'sha kunlarda qabul qilgan qaroriga ko'ra, Botu oilasining boshqa a'zolari ham surgun qilinishi lozim edi. Ammo, Erkli bilan Naimani taqsimot punktiga olib borganlarida, ikki diydirlagan va ko'z yoshlari shashqator oqib turgan bolani ko'rgan xodimalardan biri rahmi kelib, Botuning ota-onasi qo'lida qolishiga ijozat beradi.

Lekin oradan ko'p o'tmay, boshqa "xalq dushmanlari"ning 15–16 yoshga to'lgan farzandlari qatori, Erkli ham qamoqqa olinadi. Avval unga 10 yil beriladi, keyin bu muddat 4 yilga qisqartiriladi va Erkli Hodiyeu bu muddatni o'tab, 1946-yilda ozodlikka chiqadi.

1950-yili Valentina Petrovna o'n yillik qamoq jazosini sovet mamlakatining eng dahshatli joylarida to'la o'tab, omon-eson farzandlari bag'riga qaytib keladi. Shu vaqtda Naima Mahmudova institutni bitirib, Xivaga yo'llanma olgan edi. Eridan judo qilingan, uyi tortib olingan, Toshkentda yashash huquqidan mahrum etilgan Valen-

tina Petrovna bolalari bilan Xivaga yo‘l olib, 1958-yilda oqlanguniga qadar o‘sha yerda yashaydi.

1937-yilning mudhish voqealari boshlangandan keyin Botu yashirin ravishda Toshkentga olib kelinadi, so‘ng Moskvaga olib borilib, 1938-yil 9-may kuni sovet davlatining ashaddiy dushmani sifatida otib tashlanadi.

Botu shu tarzda yaqin orada diydor ko‘rishish haqida farzandlariga bergan va‘dasini bajara olmaydi.¹

Toshkent ko‘chalaridan biriga va maktabga Botu nomi qo‘yilgan.

Jadidchilikni ko‘zga ko‘ringan shoiri va jamoat arbobi Botuning ruhiyatida zarif bir tuyg‘u, nozik his, odamiylik bo‘lib, xalqqa xizmat qilish g‘oyasi keng o‘rin olgandi. U rohatni, zavqni mehnatkashlarga xizmat qilishdan olgan, Botuning siymosida doimo bir insoniy sevgi va fidoyilik balqib turar edi.

¹ *Боту*. Танланган асарлар. – Т.: “Шарқ” Нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2004. 23–25-б.

BO‘RI QODIROV

**BOTU (MAHMUD HODIYEV)
SHOIR VA JAMOAT ARBOBI**

Toshkent – “Ma’naviyat” – 2024

Muharrir *Zuhriddin Qudratov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Sohibov*
Musahhih *Sharofat Xurramova*
Kompyuterda tayyorlovchi *Shuhrat Sohibov*

Litsenziya AI №189, 10.05.2011-yilda berilgan.
Bosishga 26.11.2024-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$.
“Times New Roman” garniturasini. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 1,26. Nashr tabog‘i 1,20.
Buyurtma №24-146. Adadi 200 nusxa
Narxi shartnoma asosida.

“Ma’naviyat” nashriyotida chop etildi.
100047. Toshkent, Taraqqiyot 2-berk ko‘cha, 2-uy.